

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

2006-yil 11 - 17 - sentabr N:37 (66578)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar
Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» Hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro
xayriya jamg'armasi.

Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

VATAN QO'SHIG'I

Men Vatanni sevaman,
Tanda jonimdir Vatan.
Yulduzlari ko'zimd,
Osmonimdir Vatan.
Kipriklarim varaqlar,
Oy sahfalari charaqlar,
Toshlari ham varaqlar,
Nur bayonimdir Vatan.
Mendan yosh, lekin qullug',
Yetti pushtimdan ulug',
Bag'ri hikmatga to'lug',
Dur makonimdir Vatan.
Tog'i - Buxoriy bobom,
Bog'i bahoriy bobom,

Temur - suvoriy bobom,
Shohjahonimdir Vatan.
Naqshin nigori beshigim,
Quyosh ochgan eshigim,
Otam aytdi qo'shig'im,
Jonajonimdir Vatan.
Menda ko'pdur hur niyat,
Eng azizi - Hurriyat.
Sharafing - abadiyat
Sharaf-shonimsan Vatan.
Doim yorug'dir yo'lim,
Bu she'rni aytdi ko'nglim,
Vatan - shukrona singlim,
Onajonimdir Vatan.

Aziz bolajonlar, kuni kecha maktabingizning bayramona bezatilgan hovlisi uzra jaranglagan qo'ng'iroqning quvnoq sadolari hali-xanuz quloqlaringiz ostida jaranglayotgandir-a? Ayniqsa, bilim dargohiga ilk bor qadam qo'yayotgan o'quvchilarning shodliklari cheksizdir? Ularning «Bilimlar qasrida»gi ilk quvonchiga sherik bo'lish maqsadida, Yunusobod tumanidagi 143-maktab sari yo'l oldik. Kichkintoylar ko'zlarida balqib turgan hayajon-u quvonchni ko'rib, ularga havasimiz keldi.
-Bolalarim biroz o'yinchoqlar-da, deya gap boshladilar birinchi sinf muallimasi Nargiza opa Rizayeva.
-Maktabga kelib, darrov tartib-qoidaga o'rganib ketishlari qiyin, bola baribir bola-da - deb, qo'shib qo'yidilar yana. Bolajonlar bilan salomlashgach, birma-bir savolga tutdim. Ularning gaplariga bir quloq tutib ko'ring-a!

DASTYOR QIZMAN

Nozima HASANOVA:

- Maktabga borganimdan, o'quvchi bo'lganimdan juda xursandman. Oyim: «Endi katta qiz bo'lib qolding», - deydi. Shuning uchun ham uyimizdagi mushuk, to'ti, tovuqlarga o'zim qarayapman. Darslarimni tayyorlab bo'lgach, oyijonimga yordamchiman. Katta bo'lsam, dorixonada ishlamoqchiman.



Ilk qadam

BIRINCHI MARS A BIRINCHI SINFGA!

ODOBLI BOLAMAN

Ismoil SHOKIROV:

- Maktab menga yoqdi. O'qituvchimiz ham xuddi onamdek juda mehribon ekanlar. Faqatgina ertalab barvaqt turishga biroz qiynalyapman-da. Ha mayli, o'rganib ketarman. O'zimni xuddi katta bolalardek his qilyapman.
- O'quvchi odobli, tartibli bo'lishi kerak, - deydi buvim. Men ham shunday bola bo'lishga harakat qilyapman.



KO'P NARSANI BILISH KERAK

Ruxsora HAYDAROVA:

-Men juda ko'p she'rlar bilaman. Bittasini aytib bersam maylimi?

Saodat bergan chiroy,
Bir ko'rgan ming maqtar joy.
Quyoshli O'zbekiston,
Qalbi yosh O'zbekiston...

Bu she'rni menga oyijonim yodlatganlar. Maktabga kelgandan keyin, ko'p narsani bilish kerak ekan-da... Kelajakda shifokor bo'lib, odamlarni davolamoqchiman.



MEN ENG KATTASIMAN

Yaxyo SUNNATOV:

-Men bolalarning ichida eng kattasiman. Maktabga kelishdan oldin 110-bog'chaga borganman. Farida opamiz har xil o'yinlar o'ynashni, rangli qog'ozlardan gullar, qayiqlar yasashni o'rgatgandilar. Maktabda «5» bahoga o'qiyman. Katta bo'lganimda askar bo'lmoqchiman. Askarlar o'z yerini, xalqini yomonlardan asraydi.



SOVG'ALARDAN MINNATDORMAN

Shirina HASANOVA: -Yoshim 7 da. Bog'chada Nasiba opamiz sanashni, yozishni o'rgatgandilar. Mozaikalar yasaganimda bog'cha opam rosa maqtardilar. Maktabda ham yaxshi qiz bo'lamen. Prezidentimiz bergan papka menga juda yoqdi. Oyimning aytishlaricha, bunga javoban faqat yaxshi o'qishimiz kerak ekan.

O'QISHNI BILAMAN

Soliha OMONOVA:

-Men ham bog'chaga qatnardim. Keyin ukalarimga qarash uchun bog'chaga bormaganman. Ukalarim uxlaganda, oyijonim menga harflarni o'rgatgandilar. Hozir ularni bemalol qo'shib o'qiy olaman.



100 GACHA SANAY OLAMAN

Shirin HAKIMOVA, 6 yoshda:

-Maktabga qatnash menga juda yoqdi. Ustozimiz bizga yozuv, matematika, alifbe kitoblari nimalarni o'rgatishini tushuntirib berdilar. Men 100 gacha sanashni bilaman, oyijonim o'rgatganlar. Ular kollejdagi dars beradilar. Katta bo'lsam, tish shifokori bo'lmoqchiman.



OYIMGA KO'YLAK TIKAMAN

Malohat SOLIHOVA:

-Men maktabga kelishdan oldin bog'chaga qatnaganman. Bog'chada bizga sanashni, qo'shish-ayirishlarni o'rgatishgan. Maktabda esa ustozimiz o'rgatayaptilar. Katta bo'lganimda tikuvchi bo'lib, eng birinchi oyimga chiroyli ko'ylak tikib beraman.

(Kichkintoylarning ilk taassurotlari davomini 2-betda o'qiydiz).



(Davomi. Boshi 1-betda).

MEN HAM «USTOZ» BO'LAMAN**Mushtariy BEGMATOVA:**

–Bog'chaga borganimda bizga plastilindan odamchalar, har xil hayvonlarni yasashni o'rgatishardi. Shunda tarbiyachimizga juda havas qilardim. Maktabda esa ustozimizga havasim kelayapti. Chunki hamma narsani biladilar-da. Katta bo'lsam, men ham o'qituvchi bo'lmoqchiman.

**MAKTABGA KECH QOLMAYMAN****Yusuf ABDUJALILOV:**

–Mening yoshim 7 da. Maktab menga juda ham yoqdi. Faqat sinfimizda o'g'il bolalarning kamligi yomon ekan-da. Yana ertalab barvaqt turish menga yoqmayapti. Chunki bog'chaga kech borsak ham hech kim urishmasdi-da. Maktabda esa qo'ng'iroq chalinguncha darsga yetib kelish kerak ekan. Men bu haqda she'r ham bilaman.

*Maktab degan shunday joy,
Yurib turgan poyezdday.*

*Kechga qolsang bir nafas,
Seni kutib o'tirmas.*

–O'zing maktabga kech qolmaysanmi?

–Yo'q, men hech qachon maktabga kech qolmayman. Dangasa bolalarigina maktabga kech qoladilar.

Hilola JALILOVA:

–Men ham oyijonimga yordam beraman. Maktabdan uyga borgach, dars tayyorlayman, rasmi kitoblarni tomosha qilaman. Oyijonim menga juda ko'p she'rlar o'rgatganlar. Men ham katta bo'lganimda tikuvchi bo'lmoqchiman.

**O'Z-O'ZIMGA SO'Z BERDIM****Muxlisa ISMOILOVA:**

–Yoshim 6 da. Maktabga kelgan kunimiz bizga ustozimiz Prezidentimizning sovg'alarini topshirdilar. O'quv qurollari bilan to'ldirilgan papkani olarkanman, maktabda yaxshi o'qishga, ustozlarimning gaplarini ikki qilmaslikka, o'z-o'zimga so'z berdim.

Ozoda TURSUNBOYEVA.**RAHMAT SENGA,
«TONG YULDUZI»M**

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatining xodimlari! Hormay, tolmay yuribsizlarmi? Men sizning doimiy obunachingizman. Shuning uchun ham gazetaning har bir sonini kuzatib boraman. Bir kuni gazetani varaqlayotib, birdan tanish ism-familiyaga ko'zim tushdi.

–Voy, bu mening she'rim-ku! - haya-jonlanganimdan baqirib yuboribman. Oshxonada ovqat tayyorlayotgan oyim xavotirlanib yugurib keldilar.

–Ha, bolam, tinchlikmi? Yuragimni yording-ku!

–Oyijon, gazetada mening she'rim chiqibdi. Mana ko'ring-a! Men chiqmasa kerak, degan hadikda maktub yozgandim. Demak, xatlarni o'qishar ekan-da...

–Albatta o'qishadi. Ertaga maktabingga gazetani olib bor. Ustozlaring, sinfdoshlaring ham o'qishsin. Ma'rifatga eltuvchi ushbu gazetaga o'rtoqlaring ham obuna bo'lishsin, -dedilar oyim.

Ertasi kuni maktab majlislar zalida bo'lgan yig'ilishda direktorimiz Obid aka Kenjayev gazetani barchaga ko'rsatib, she'rimni o'qib berdilar. Meni hammaga tanitgan, tariqchadek obro'yimni tog'lar qadar ko'targan sensan, «Tong yulduzi»m!

Islomjon OTANAZAROV,
Jizzax viloyati, Yangiobod tumani,
2-o'rta maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi.

**ERTAKLARNING
SEHRLI OLAMI**

O'smirlik davrida yigit-qizlar bamisoli osmonda uchib yuradi. Xayol parishon, cheksiz orzular, yasan-tusanlar...

Shuning uchunmi, ko'pincha kattalar:

–Sen ertaklardagi shahzodani hayotdan izlama, o'zing ham osmonlarda yurmay, mundaq yerga tush. Ko'zingni kattaroq och, bo'yanma, eng yaxshisi tabiiy go'zallik, -deya koyishadi.

Shunda hayron bo'laman, nahotki, kitoblarda yoziladigan buyuk muhabbatlar, ertaklardagi sehrlilik hodisalar, shahzoda va malikalar faqatgina to'qima bo'lsa?! Yo'q, men ana shu asarlar ostida oz bo'lsa-da haqiqat bor, deb o'ylayman. Axir bu dunyoda ajabto'vur mo'jizalar bo'lib turadi-ku! Mo'jizaga ishonmay bo'ladimi axir!?

Barno TO'XTASINOVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston tumani,
3-o'rta ta'lim maktabining 7- «V» sinf o'quvchisi.

**USTOZIMGA TA'ZIM**

Bu yil 4-sinfga o'tdim. Birinchi ustozim bo'lmish Oygul opamdan ko'p narsalarni o'rgandim.

Hozir eslasam kulгим keladi. Birinchi sinfga kelgan kunimiz biz o'quvchilar «ustoz» demay, nuqul «bog'cha opa» deb chaqirardik. Yozgimiz yoki o'qigimiz kelmasa «xohlamayman» deb yig'lab yuborardik. Bizdek erka, tantiq o'quvchilarga sabr-toqat qilgan, vaqtida o'qitib, bilim berishga intilgan ustozimning mashaqqatlarini endi tushunib yetyapman. Menga qolsa maktabni bitirguncha Oygul opam dars o'tsalar. Lekin nailoj. Boshqa birinchi sinflar keladi-ku. Ularga ham Oygul opamdek mehribon ustoz kerak-da.

Xurshida SULTONOVA,
Xorazm viloyati, Xazorasp tumani,
Yangiobozor qishlog'ida joylashgan 2-maktabning 4-sinf o'quvchisi.

IKKI BOG'BON**O'zimiz ertak yozamiz**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimda odil, xalqparvar, adolatli podsho yashab o'tgan ekan. Saroy ahlidan ham to'g'riso'zlikni, vijdonan ishlashni talab qilarkan.

Uning kattagina mevazor bog'i bo'lib, uzoq yillardan buyon keksa bir bog'boni parvarishlab kelarkan. Bog'bon olamdan o'tgach, podshoning oldida yangi bog'bon topish masalasi ko'ndalang turibdi. Shunda uning huzuriga ikki nafar bog'bonni boshlab kelishibdi. Podsho ularni boqqa olib borib, sinab ko'rmoqchi bo'libdi.

– Qarshingizdagi daraxtlarni ko'ryapsizmi?-so'rabdi gurkirab o'sayotgan ikki niholga ishora qilib. – Qay biringiz ularni tez va soz qilib qirqib bersangiz, mening bog'bonim bo'lasiz, -debdi.

Bog'bonlardan biri zudlik bilan ishga kirishib ketibdi. Zumda daraxtni qirqib, mayda-mayda o'tinchalar holiga keltirib qo'yibdi. Ikkinchisi esa qo'lga boltani ham olmay turaveribdi.

– Sen nima uchun topshirig'imni bajarmaysan? -so'rabdi undan podsho.

– Olampanoh, men o'tinchi emas, bog'bonman. Vazifam daraxt kesish emas,

yangi-yangi nihollar o'tqazib, bog' yaratish, uni parvarishlash, -deb javob beribdi.

Donoligiga, oqilona javobiga qoyil qolgan podsho uni o'ziga bog'bon qilib olibdi.

Dilbar RAJABOVA,
Xorazm viloyati, Gurlan
tumanidagi 18-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi.



BOLALAR KELAJAK POYDEVORI

Aziz bolajonlar, go'zal diyorumizga bir kunda qanchadan-qancha mehmonlar kelib ketishadi-a? Ularning hammasini ham bilavermaymiz, to'g'rimi? Lekin, rasmiy tashrif bilan mehmon kelsa, darhol xabar topamiz. Chunki bu haqda gazetalarda yozishadi, oynayi jahon orqali namoyish etishadi. Shunday tashriflar tariximiz zarvaralariga ham bitiladi. Shuning uchun ham bunday mehmonlar, ularning mamlakatlari haqida ko'proq bilishga intilamiz.

Kuni kecha Prezidentimiz Islom Karimovning taklifiga binoan, Yaponiya Bosh vaziri Jun'ichiro Koidzumi yurtimizga tashrif buyurganini, ikki davlat o'rtasida hamkorlikka oid qator hujjatlar imzolanganini ham oynayi jahon orqali bilib oldik.

Diyorumiz bilan kunchiqar yurt oralig'idagi masofa ancha olis bo'lsa-da, ko'ngillar yaqin bo'lganidanmi, davlatlarimiz orasida mustahkam do'stlik aloqalari o'rnatilgan. Ana shu tashrif xususida hamda yaponiyalik bolalar hayoti haqida ko'proq bilish maqsadida, Toshkentda joylashgan Yaponiya elchixonasiga yo'l oldim va Yaponiyaning favqulodda va muxtor elchisi janob Yuichi KUSUMOTO bilan suhbatlashishga muyassar bo'ldim.

– Assalomu alaykum, Muharramxonim. Elchixonamizga xush kelibsiz. Avvalo, men sizni va siz orqali o'zbekistonlik bolalarni Mustaqillikning 15 yilligi va Bilimlar kuni bayramlari bilan chin dildan qutlayman. Men barchangizga mustahkam sog'lik tilayman, deya iliq qarshi oldi meni elchi janoblari. Salomlikdan so'ng, savollarimni boshladim:

– Sizlarda maktab ta'limi qanday?

– Bugungi kun boshlang'ich ta'limiga 1900-yil qabul qilingan Dekret (Farmoyish) asos bo'ldi. Boshlang'ich ta'lim to'rt yillikdan olti yillikka uzaytirildi. Shunday qilib, Yaponiyada 6 yil boshlang'ich ta'lim, 3 yil o'rta ta'lim mavjud bo'lib, u majburiy hisoblanadi. O'rta ta'limni tugatganlar yuqori o'rta ta'limga hujjat topshirishadi. U 3 yillik o'qishdan iborat. Yuqori o'rta ta'lim majburiy bo'lmasa-da, 90 foiz yaponiyaliklar albatta unda tahsil olib, keyin 4 yillik oliy o'quv yurtlariga kiradi. Maktablarimiz asosan davlat hisobida, biroq xususiyarlari ham bor.

Yaponiyada ta'lim sohasiga jiddiy yondoshiladi. Ota-onalar o'z mablag'larini chegirib bo'lsa ham, o'z

tayyorlash marosimi alohida mavzu bo'lsa, gullardan murakkab ikebanalar yasashga kuchli

farzandlarining mahorat tala b bilimli, diplomli etiladi. O'zingizga bo'lishlariga harakat qiladi. Kelajagini o'ylaydigan bola albatta ma'lum, Sakura butog'i o'qishi, yangi texnologiya Yaponiya ramzidir. U ko'nikmalarini o'zlashtirishi ba'zan yapon olchasi, deb kerak, deb o'ylayman.

– Bolalar bo'sh vaqtlarida nimalar bilan mashg'ul bo'lishadi?

– Umumiy olib qaraganda, musiqa, sport, tarix, an'ana va udumlar, kashfiyotlar va sayohatlar bilan band bo'lishadi. An'anaviy Yaponiya musiqasi yoxud mumtoz musiqa, yoinki zamonaviy musiqa yo'nalishida jahon miqyosida mashhur bo'lganlar talaygina. Yosh chempionlarimiz ham bisyor. Yana Yaponiyada milliy qadriyatlar, udum va an'analarga keng o'rin beriladi. Choy

pushti-qizil yoki och pushti rangda bo'lib, 2-5 donadan to'p-to'p bo'lib ochiladi. Sakura gullashini yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lganlar ko'rishga ishtiyoq bo'ladi. Chunki bu ham bizning an'analarimizdan hisoblanadi. Sakura gullashidan bir kun oldin odamlar bog'ning yaxshi joylaridan egallab olishib, oilaviy yoki yor-u birodarlar bilan tomosha qilib, uni bayramday nishonlashadi.

– Bolalar tashkilotlariga ham to'xtalsangiz?

– Bizda rasmiy bolalar tashkiloti yo'q. Ammo har bir maktab o'zining qonun-qoidasiga, tartib va nizomiga ega. Maktab miqyosida o'tkaziladigan tadbirlar, musobaqalar va tanlovlar g'oliblari keyingi bosqich – maktablararo tanloviga yo'l oladi. Eng faxrli o'rinlar sohiblari dunyo miqyosiga chiqadi. Yaponiyada bolajonlarga vatan tarixini, uni e'zozlashni murg'aklikdan o'rgatiladi. Misol uchun, ular iste'mol qiladigan shirinliklarida ham afsonaviy qahramonlarning siyratlari tushirilgan bo'ladi. Yoki bolalarga mo'ljallangan kitobchalarni olaylik. Ular ham tarixdan so'zlovchi multfilm qahramonlaridan iborat. Bu yo'l bilan bolalar tarixni oson o'zlashtiradi.


– O'zbekistonlik bolalarga qanday tilaklaringiz bor?

– Farzand – mamlakatning xazinasini hisoblanadi. Unga qancha ko'p e'tibor berilsa, voyaga yetganida shuncha javohirni olish mumkin. Bu tarbiya, ta'limning muhimligi, e'tiborning kuchliligi kifoya degani emas. O'z navbatida bola ham davlat oldidagi majburiyatlarini unutmashligi kerak. O'z yurtining porloq kelajagi uchun xizmatga shay tursin.

– Suhbatingiz uchun tashakkur!



Yaponiyaning favqulodda va muxtor elchisi janob Yuichi KUSUMOTO



JAOM — MADANIYAT HAM



Yaponcha oshxona qandayligini biasizmi?

O-tya – ko'k choy va xodzyati.

Korokke – kartoshkali pyurega qiymali go'sht, to'g'ralgan piyoz qo'shib, kotlet tayyorlanadi. U talqonga bulab olinib, yog'da qovuriladi.

Yaki-dzana – qovurilgan baliq.

Syoyu – soyali sous.

Natto – soya dukkaklari.

Miso-siru – soya dukkaklaridan tayyorlangan sho'rva.

Ro-xan – Qaynatilgan oq guruch. U taomnomaning asosi hisoblanadi.

Cukemono – tuzlangan baqlajon, yapon sholg'omi va boshqalar.

Yaponiya bayramlari:

- 1-yanvar – Yangi yil;
- Yanvarning ikkinchi dushanbasi – Balog'at yoshi kuni;
- 11-fevral – Yaponiya davlatining tashkil topgan kuni;
- 21-mart – Bahorgi tengkunlik;
- 29-aprel – Yashillik bayrami;
- 3-may – Konstitutsiya kuni;
- 5-may – Bolalar kuni;
- 20-iyul – Dengiz kuni;
- 15-sentabr – Qariyalarni qadrlash kuni;
- 23-sentabr – Kuzgi tengkunlik;
- Oktabrning ikkinchi dushanbasi – Sport va sog'lik bayrami;
- 3-noyabr – Madaniyat kuni;
- 23-noyabr – Mehnatga minnatdorlik kuni;
- 23-dekabr – Imperatorning tug'ilgan kuni.



Sog' yurak - tog' yurak maqsadingiz?

Men poytaxtdagi Yunusobod tumanida joylashgan 97-maktabning 8- «B» sinfida «a'lo» baholarga o'qiydigan Bunyodbek Madmurodov ismli bir bolani taniyman.

Uning boshqa tengdoshlarimizdan ajralib turadigan jihati bor: doimo shoshib yuradi.

Bir kuni qiziqib sababini so'rasam:

–Sport mashg'ulotlariga kechikayman-da, - deya o'tib ketdi. – Keyin yana joylarim ham bor...

To'g'risi, unga juda havasim keldi. Qaniydi, o'ramizda u kabi vaqtning qadrlaydigan, har onidan unumli foydalanishga intiladiganlar ko'p bo'lsa...

Fursat topib, u bilan bafurja suhbatlashdim. Shunda uning Amir Temur nomidagi kurash klubining namunali a'zolaridan biri ekanligini ham bilib oldim va uni savolga tutdim:

–*Sport bilan shug'ullanishingizga kim sababchi bo'lgan? Oilangizda sportchilar bormi?*

–Oilamizni «sportchilar oilasi» ham deyishadi. Dadam karate bo'yicha qora belbog' sohibi, yunonrum kurashidan 1-toifali sportchi va sport murabbiysi. Onam ham sport bilan muntazam shug'ullanib keladilar. Hozirda kurash bo'yicha hakamlikka tayyorlanyaptilar. Opam esa, men bilan birga kurash mashg'ulotlariga qatnaydilar.

–*Sport sizga nima berdi? U bilan shug'ullanishdan*

–Nimaki orzu qilgan bo'lsam, hammasini. Masalan, sog'lik, aql, ko'rkamlik va ota-onam ishonchini berdi.

– *Mashg'ulotlar sizni darslardan chalg'itmaydimi?*

–Aksincha, kunimni to'g'ri taqsimlashga, darslarimni o'z vaqtida bajarishga Klubimiz a'zolari orasida «2»chi oladiganlarga o'rin yo'qligi uchun o'qishga intilamiz.

–*Sportning mashaqqatlari qilmayptimi? ham o'ziga yarasha bo'ladi. Og'irlik*

–Sport bilan to'rt yoshimdan shug'ullanaman. O'sha paytlarda biroz og'irlik qilardi. Hozir ko'nikib ketganman.

–*Musobaqalar va yutuqlaringiz haqida ham gapirib bering.*

–Buxoro, Navoiy, Nukus va Sirdaryoda bo'lib o'tgan musobaqalarda 1- va 2-o'rinlarni egallaganman. Poytaxtimizda bo'lib o'tgan shahar chempionatida esa faxrli 1-o'rinni oldim.

–*Aytaylik, sport musobaqasida yutuqqa erishdingiz. Quvonchingizni birinchi bo'lib kim bilan o'rtoqlashasiz?*

–Oila a'zolarim va murabbiyim Olimjon Haitov bilan albatta.

–*Tengdoshlaringizga qanday tilaklaringiz bor?*

–Ham aqlan, ham jismonan sog' bo'lay desangiz, sport bilan do'stlashishing, -deyman.

Zulfizar ISONTURDIYEVA,
poytaxtdagi 12 - maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.



SPORT DO'STIMIZ BOLSIN

OCHIQ ESHIKLAR KUNI

“BU GIMNASTIKACHILAR QISHLOQDANMI?”


Bir tumandan qo'sh maktub



Joriy yilda viloyat miqyosida «Ochiq eshiklar kuni» tadbirini o'tkazdik. Unda 1723 nafar 9-sinf bitiruvchilari kasb-hunar kollejlari faoliyati bilan tanishdilar. Tuzilgan tadbir va rejalar asosida 9-sinf bitiruvchilaridan 6 xil yo'nalishda anketa-so'rovnomalar olindi. Jami 2781 nafar bitiruvchilardan 191 nafari akademik litseylarga, 439 nafari tibbiyot, 446 nafari pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari hujjat topshirdilar. Xususan, Buloqboshi pedagogik ijtimoiy-iqtisodiy kollejiga 155 nafar, Buloqboshi iqtisodiyot va yengil sanoat kollejiga 183 nafar o'quvchilar hujjat topshirgan bo'lsa, 662 nafari hududdan tashqaridagi akademik litsey va kasb hunar kollejlari hujjat topshirdilar.

Ko'rib turganingizdek, hech bir bitiruvchi nazarimizdan chetda qolmaydi.

Muhammadsoli ERMATOV,
Buloqboshi XTB Tashxis Markazi boshlig'i.



Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining viloyat bo'limi tomonidan maktabimiz uchun ajratilgan 140 mln. so'mlik mablag'ga badiiy gimnastika inventarlari sotib oldik. Sakkiz nafar sportchi qizaloqlardan iborat guruhimiz shu yilgi «Umid nihollari» musobaqalarida ishtirok etib, 3-o'rin sohibasi bo'lishdi. Ularning murabbiyi Latifaxon Sariqova o'z shogirdlarini badiiy gimnastika sirlaridan boxabar qilishga bor kuchini sarflaydi. Xipcha bel qizaloqlar viloyatdan kelgan hay'at a'zolarini ham hayratga soldi. Ular: «Nahotki qishloqda ham gimnastikachilar bo'lsa?» deb hayron bo'lishdi.

Ana shunaqa gaplar. Men maktabim o'quvchilari bilan faxrlanaman. Nasib qilsa, kelajakda jahon miqyosiga ham chiqamiz.

Gulbahor TO'LANOVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi
tumanidagi 20-maktab direktori.

ЎЗБЕКИСТОН



МЕКЕНИМ

Бодурдун бетин каптаган,
Боз туман тарайт жел менен.
Кун тийип, көзүм ачканым,
Гүлдөгөн мекен сен менен.

Сутүндү бердиң эндей,
Күчүндү бердиң ченебей.
Бооруңда сенин жетилдим,
Балапан элем кенедей.

Кубаты сенсиң билектин,
Кубанчы сенсиң жүрөктүн.
Келечек үчүн ойлосоң,
Тиреги сенсиң тилектин.

Аткан таң, тийген күнүм сен,
Ичкен суу, сүйгөн гүлүм сен,
Көңүлдүн эркин булагы,
Көкөлөп чыккан үнүм сен.

Канатын сууга чапкылап,
Каз-өрдөк жашайт кел менен.
Кан жүрүп, жүрөк соккону,
Кагылам мекен сен менен.

Абдурасул Кылычев

Ман фарзанди ин диёр,
Хушнудаму бахтиёр.
Мефахрам бо ту Ватан,
Эй кишвари муаззам.

Хонда ман аз дилу чон,
Дар мактабат Ватанчон,
Васфи туро мекунам,
Фардо то Боми Чахон.

Имрүз шеъри ман дуруд,
Пагоҳ хонанд чун суруд,
Чу бини соли дигар,
Вирди забон хоҳад шуд.

Порчаи хоки чахон,
Порчаи поки чахон,
Бахту нишоти мани,
Чоночон, Ўзбекистон!

Анўшервон ШЕРАЛИЕВ
хонандаи синфи 5-уми
мактаби миёнаи ба номи
А.Фирдавси, ноҳияи Сўх



Оилаи тифоқ

Мўрчаҳо дар замонҳои хеле қадим ҳозира барин якҷоя нею алоҳида-алоҳида зиндагӣ мекарданд.

Ҳар кадом мўрча ризқу рўзиашро худаш пайдо мекард ва фақат ғами худашро меҳўрд.

Ҳаёти мўрчаҳо бисёр раҳмовар ва хузнангез буд. Ба дараҷае раҳмовар буд, ки осмон ҳоли онҳоро дида зор-зор гирифт.

Ашки осмон ба сел табдил ёфт. Вақти боридани сел мўрчаҳо паҳну парешон буданд. Яке дар болои навдаю дигаре рӯи баргу сеюми дар замин.

Борони сел якчанд рўз беист борид. Вақте ки вай бас карду офтоб баромад, мўрчаи Чавон базўр чашм кушода, ба атроф нигаристу диллаш таҳ кашада рафт. Мавҷи сел бисёр қасади мўрчаҳоро гирифта бурда буд...

Мўри Чавон, ки худаш ҳам тамоман беҳолу мадор шуда буд, қувваи охиринашро чамъ карда, пеш хазид. Илоҷе ёфтанд даркор буд, ки ин мўрчаҳои боқимонда ҳам нобуд нашаванд. Аммо ӯ намедонист, ки чӣ кор кунад. Ногоҳ чашми Мўри Чавон ба Занбўри асал афтод, ки дуртар аз ӯ дар офтобрўя аз гулҳо шарбат меғундорад. Вай наздик рафта ба Занбўр фалокати ба сари мўрчаҳо омадаро нақл кард.

— Шумо, мўрчаҳо, ки хурду заиф ҳастед, бояд мо — занбўрҳои асал барин, ба ҳам муттаҳид, якҷоя шавед, — гуфт Занбўр. — Мо дар оилаҳои калон зиндагӣ мекунем. Қисме аз мо асал захира мекунад, гурўҳе хона месозад, қисми дигаре аз пайи бачаҳо мешаванд... Ба шумоён ҳам ана ҳамин хел оила-оила, тифоқона зиндагӣ кардан лозим аст.

Занбўри асал парвоз карда рафт. Мўри Чавон бошад, аз пайи ҷустуҷўи мўрчагони боқимонда шуд ва онҳоро ёфтаву чамъ карда, маслиҳати Занбўри асалро расонд.

Мўрчагон хурсанд гашта зуд аз пайи кор шуданд. Ҳамаашон аз таҳти дил меҳнат карданд дар натиҷа дере нагузашта мўрчахонаи калоне бунёд шуд. Дар он ҳам яслии бачагон буду ҳам хонаи хобу ҳам анбору ҳам даромадгоҳҳои эҳтиётӣ...

Ана аз ҳамон вақт сар карда, мўрчаҳо якҷоя, дар оилаҳои калон-калон тифоқ умр ба сар мебаранд.

Онҳо байни худ ҳеч гоҳ қангу хархаша намекунанд. Агар ноҳалафе ба ягон нафари онҳо дарафтад, ҳама якҷоя ба ёрии ӯ мешитобанд.

Мўрчагон ҳатто пешгўи кардани боду ҳаворо ҳам ёд гирифтаанд. Ҳар гоҳ бини, ки онҳо бачаҳояшонро аз мўрчахона кашада бароварда, дар ҷои баландтаре лонаи нав сохта истодаанд, дон, ки ба қариби борони сел хоҳад шуд.

Деҳаи номдори ман

Ўхм ном дорад деҳаи ман. Одамон дар сари маънои номи он фикру мулоҳизаҳои гуногун баён мекунанд. Меғўянд, ки Ўхм калимаи суғдист ва ба асли маънояш расидан хеле мушкил аст. Деҳаам, ки мисли даҳҳо деҳаҳои дигар дар доманаи қаторкўҳҳои Нурато воқеъ аст, аҷаб табиати фусункор дорад. Боғу роғҳои аҷибу чормағззорҳои чашми касро мебарад. Худро хушбахт мешуморам, ки дар ҳамин деҳаи зебоманзар ба камол мерасам. Дар яке аз мактабҳои он мехонаму дар дил орзу дорам, ки бо баҳоҳои хубу аъло онро хатм намоям. Ба хоҳарам Фарзона, ки навакак мактабрав шуд ва ба шоираи номдор ҳавас карда ин ном ба ӯ ниҳодаем, хондану навиштанро ёд медиҳам. Кош ӯ ҳам шоира шавад ва

Деҳаи номдори ман,
Халқи вафодори ман —

гўён деҳаи ман, як порчаи Ватани беканори моро васф кунад.

Ирода ШОДИЕВА

хонандаи мактаби рақами

14-и деҳаи Уҳми ноҳияи Фориш

SENIŇ

(Ўзбекистан Республикасының
ғараşызлыгының 15 ýyllygyna
bagyşlanýar)

Gözel döwrüň başlandy,
Ýigit göwni hoşlandy,
Dünyäm seni hoş gördi,
On dört ýaşynda seniň.

Toýuň toýa ulaşdy,
Ýolumyza nur düşdi,
Ogul-gyzyň dür saçdy,
On dört ýaşynda seniň.

Milletiň dürli-dürli,
Özbegim süýji dilli,
Adyň dünýäde belli,
Özbekistanym meniň.



ЛАШЫНЫМ

Лазиза қызым — Лашыным!
Әр нәрсені бір айтып,
Былдыр — былдыр етесің.
Атаның сөзін ұғып ал,
Мектебіңе кетесің.
Апайыңның сабағын,
Тыңдап, әбден ұғынып,
Тапсырмасын орындап,
Үйіңе қайта жетесің.
Сабағыңды дайындап,
Әжеңе көмек етесің.
Көйлегіңді өтектеп,
Ойыңға сонра өтесің.
Міне осындай зейіңді,
Бола берсең тап солай,
Күні ертең жетіліп,
Белестерден өтерсің.
Іздене берсең жалықпай,
Күні ертең өзің — ақ —
Биіктерден көрініп,
Ғұлама болып кетерсің!

Қалдыбек СЕЙДАНОВ



O'quv yilining oxirgi kunlari edi. 4- «A» sinf rahbari Mohira opa shosha-pisha xonaga kirib keldi-da:

–Bolalar, ertaga soat 9 da maktabimizda tantanali yig'ilish – «So'nggi qo'ng'iroq» bo'ladi, deya e'lon qildi. –Yuqori sinflardagi aka-opalaringizni mustaqil hayotga kuzatamiz. Sinfimizdagi alochi, jamoatchi va intizomli o'quvchilarga «Faxriy yorliq»lar topshiriladi.

Mohira opa negadir «intizomli» so'ziga alohida urg'u berib, Kamolaga ma'noli qarab qo'ydi. Kamola esa buni payqamadi ham.

Shu kuni u maktabdan xursand kayfiyatda qaytdi. Kiyimlarini yuvdi, dazmolladi. O'z holicha ertangi kunga, «Faxriy yorliq» olishga taraddudlandi. Lekin yig'ilish u kutgandek o'tmadi. Taqdirlangan o'quvchilar ro'yxatida ularning sinfidan faqat birgina o'quvchi – Kamolaning eng yaqin dugonasi Nigora Safarova bor edi xolos...

Yig'ilish tugagach, o'quvchilar kelishib olishgandek, aylanishga borishmoqchi bo'lgandi. Lekin Kamola hech kimga qaramay ketib qoldi.

–Kamola, dugonajon...-deya uni to'xtatmoqchi bo'lgan Nigoraning gapi og'zida qoldi.

–Dugona dema meni, endi sen bilan do'st bo'lmayman,-deya qo'l siltagancha ketib qoldi.



Kamola yo'l-yo'lakay yilligida birorta ham «4» bahosi bo'lmasa-da, unga «Faxriy yorliq» berishmagani haqida o'ylab borardi. Uyg'a kelib o'z xonasiga kirdi-da, yechinmay ham yotib oldi. Buvisi mehribonlik bilan:

XATOSINI TUSHUNDI

«Senga nima bo'ldi ona qizim? Tobing qochib qolmadimi, mabodo? Chiq, yaxshi ko'rgan ovqatingni pishirib qo'ydim», deya tushlikka chaqirganida, «E-e, yeyavermaysizlarmi, hozir juda ovqat yeydigan bo'lib turibman-da», deya jerkib tashladi...

Kech kirib, dadasi ishdan qaytdi. Kamola odatiga ko'ra dadasiga salom berib, qo'lidan portfelini oldi. Dadasi esa eshitilar-eshitilmas alik oldi-da, qovog'ini uygancha ichkariga kirib ketdi. Kamola bu holning sababini tushunib turardi. Hammasiga tunov kungi voqea sabab. Ota-onalar majlisida o'qituvchisi Kamolaning keyingi paytlarda intizomi biroz pasayib borayotgani, «alochi»man, - deya o'rtoqlarini ham pisand

q i l m a y

qo'yayotgani, hatto o'qituvchilarga ham qo'rslik qilib, gap qaytarayotgani haqida gapirgandi. O'shanda Kamola o'rnidan dast turib: «Hecham-de, qachon, kimga qo'rslik qilibman?» deya o'qituvchisiga gap qaytar-

gandi. Shu voqeadan buyon dadasining chiroyi ochilmaydi. Avvalgidek «asal qizim», deb erkalatishlar u yoqda tursin, salomiga ham bazo'r alik olyapti. «Maktabdagi ko'ngilsizliklar kamlik qilgandek, dadamning qovotumshuq qilishlarini qaranglar», o'ylardi Kamola o'zicha. – Shu qilishganiga kechki ovqatga ham chiqmayman. Baribir o'zlari chaqirishadi...

... Oila a'zolari kechki ovqatga o'tirishdi, lekin hech kim Kamolani eslamadi. Mehribon buvijonisi ham, oyisi ham, hatto, dars tayyorlayotganida kiraverib bezor qiladigan singilchasi ham xonasiga kirib, ovqatga chaqirishmadi...

O'zi chiqay desa, g'ururi yo'l qo'ymaydi. Chiqmay desa, qorni tatalab ketyapti.

«Hammalari barobar ranjishdimi, demak xatolik mendan o'tgandir-da...» Shunday fikr xayolidan o'tishi bilan ko'ngli yorishib ketdi va tashqariga chiqib, ota-onasidan kechirim so'radi. «O'qishlar boshlangan kuniyoq ustozlarimdan, sinfdoshlarimning baridan kechirim so'rayman», deya buvijonising bag'riga o'zini otdi.

FERUZA.

Sinfimizda bir injiqroq qiz bor. Sal gapga ham arazlab qolaveradi. Shuning uchun ham u bilan yaqin dugona tutinishni hech kim xohlamasdi. Ko'pincha u bilan urushib qolmaslik uchun o'zimni zo'rg'a bosib yurardim. Sababi, dilini og'ritib qo'yishdan qo'rqardim. Chunki uning dadasi yo'q-da.

Bir kuni oxirgi soatga kechikib kirganim bois o'sha dugonamning yoniga o'tira qoldim. Darslar tugab, parta ustidagi kitob-daftarlarimni sumkamga joyladim-da, uyg'a oshiqdim.

Kechqurun dars tayyorlash uchun sumkamdan kitob-daftarlarimni olayotib, notanish daftarga ko'zim tushdi. Qiziqib ochdim, o'sha dugonamning kundalik daftari ekan. Sekin varaqlay boshladim:

...1.03.05.

Oyijonimga shunaqayam rahmim kelayaptiki... Qani endi ularni himoya qilolsam. Hech ishongim kelmaydi, bizni shunchalar xo'rlayotgan ayol mening buvim ekanligiga. Tushunolmayman, nima uchun ular bizni yomon ko'radilar? Axir dadamning bevaqt o'limiga onam aybdor emaslar-ku! Kecha buvim ammamning qiziga tug'ilgan kuningga, deb qizil ko'zli zirak sovg'a qildilar. U shunday chiroyli ediki, qani endi menda ham shunaqasi bo'lsa, deb havas qildim va beixtiyor tug'ilgan kunimning qanday o'tgani yodimga tushdi: buvim aqalli bir og'iz «tabriklayman» ham demabdilar-a?..

...7.03.05.

Bugun maktabimizda 8-Mart bayramiga bag'ishlangan kecha bo'lib o'tdi. Barcha dugonalarim chiroyli ko'ylaklar kiyib, yasanib kelishibdi.

Ularning ko'ylaklari bir-birlarinikiga juda o'xshash edi. Keyin bilsam, hammalari bir xil kiyinaylik, deb tiktirishibdi. Ulardan xafa bo'lish-bo'lmaslikni ham bilmayman. Tushunaman, dadasi yo'q, sharoiti ko'taradimi-yo'qmi, deb



Dunyoda biror kimsaning dilini nohaq og'ritgandan yomoni yo'q. Nohaqligini bilsa-yu, kechirim so'rashga g'ururi yo'l qo'ymasa, undan-da yomon. Quyida g'urur otlig' mustahkam to'siqni yengib, kechroq bo'lsa-da, yo'l qo'ygan xatosini tuzatishga o'zlarida kuch topa olgan tengdoshlaringiz maktublarini o'qiysiz. Agar siz ham bilib-bilmay kimningdir dilini nohaq og'ritib qo'ygan bo'lsangiz, «Kechiring» sahifamiz sizga yordamga oshiqadi. Axir hech bo'lmagandan ko'ra, Maktublaringizni kutib qolamiz.

menga aytishmagan. Lekin onam meni hech qachon birovdan kam qilmaslikka intiladilar. Eh, shunday damlarda dadajonimning yo'qligi judayam alam qiladi-da. Ularni elas-elas eslayman, sog'inaman, ba'zan o'ksib-o'ksib yig'layman. O'rtoqlarimga, ayniqsa, Barnoga havasim keladi. Har hafta dadasi olib bergan yangi kiyimi yoki taqinchog'ini og'zidan bol tomib maqtaydi. Shunda qizlar hijolat bo'lib, menga zimdan qarab qo'yishadi. G'alati bo'lib ketaman...

Ko'zlarimdan qalqqan shashqator yosh sababli kundalikdagi achchiq xotiralar davomini o'qiy olmadim. Tonggacha uxlo olmay, dugonam haqida o'ylab chiqdim. Becho'ra, unga pinhona qarab qo'yishimizga cha sezarkan-da...

Ertalab nonushta ham qilmay, maktabga otlandim. Sifga kirsam, dugonam ma'yus o'tirardi. Meni ko'rib, darhol so'roqqa tutdi:

–Kecha bir daftarimni yo'qotib qo'ydim. Mabodo sening kitob-daftarlaringa qo'shib ketmabdimi?

Mening esa javob berishga ham majolim kelmadi. Uni mahkam quchgancha, unsiz yig'lardim. Quloqlariga oxista shivirlab, barcha dugonalarim nomidan undan kechirim so'radim.

O'sha kundan boshlab biz qarddon dugonalarga aylandik. Endi u bilan bir partada yonma-yon o'tiramiz...

Nigora MIRSODIQOVA,
poytaxtimizdagi 315 - maktabning
10 - «B» sinf o'quvchisi.

KO'NGLI O'KSIK DUGONAM

KECHIRING...



Toshboy QODIROV:

- Ba'zi bir tengdoshlarimning kitob o'qishga qiziqishi yaxshi emas. Chunki ayrim bolalar o'zi uchun emas, baho uchun o'qishadi. Shu bois ham mutolaa qilgan kitoblarning mazmunini to'liq tushinishmaydi.

Mo'mina EGAMBERDIYEVA:

- Kitob bu xazina... Dunyoga nazar tashlaguvchi, mana shu xazinadan kim qanday foydalanayapti? Mening fikrimcha, hozir ayrim tengdoshlarimiz vaqtini bekorchilik bilan o'tkazishmoqda. Ular kitobni hurmat qilishmaydi. Ammo bilim manbai kitobni qo'lidan qo'ymay qahramonlar hayoti bilan yashaydigan Elbekjon, Ma'mura, Bahodir singari do'stlarimni ko'rganimda ko'zim quvnaydi. Ularning har bir harakati meni kitob mutolaasiga undaydi.

Nilufar YO'LCHIBOYEVA:

- Men hozir G'.G'ulomning «Shum bola» asarini o'qiyapman. To'g'ri, bizning o'qigan kitoblarning haqidagi fikrlarimiz unchalik mukammal va teran emasdir. Ammo vaqti kelib yig'ilib, teranlikning ummoni bo'lsa ajabmas.

Kitobim - oftobim

OQAR SUV TOZA VA ZILOLDIR



Siz kitob o'qiyapsizmi? - degan hayotiy shiorga aylangan sergaklantiruvchi savolni barcha bir-biriga berishi lozim. Shunda loqaydtik girdobida mudrayotgan ayrim do'stimiz, dugonamiz birdan xushyor tortsa ajab emas. Bu borada Alisher Navoiy nomli Nafis san'at litseyining «A» sinfidagi tahsil olayotgan tengdoshlaringiz shunday fikr bildirishdi:

Zilola G'OFUROVA:

- Badiiy asarlarga qiziqishim birinchi bor litseyimda o'qishga kelganimda boshlandi. Bu yerda adabiyot fani o'qituvchimiz hamda sinfdoshlarimning turtkisi bilan kitoblar mutolaa qila boshladim. Hozirgacha Ch. Aytmatovning «Birinchi muallim», A. Qahhorning «Bemor» kabi asarlarini sevib o'qidim. Ular menga zavq bag'ishlaydi.

Gulshoda SHODIYEVA:

- «Bola uchqur xayol egasi», - degan naqlga e'tibor bering. Yo'q, bu bola uchqur xayollar qilgani bilan, ko'pincha g'aming va ma'yus holda yolg'izlikdan g'am chekadi. Uni faqatgina bobosi Mo'min cholgina tushunadi xolos. Yozuvchi Ch. Aytmatovning «Oq kema» asarini o'qib undagi qahramonlar bilan yonma- yon yashadim. Ushbu asar menda katta taassurot qoldirdi.

Ha, bir so'z bilan aytganda, bilim oqar suv kabi inson ong-u shuuriga oqib borishi lozim. Ana shundagina, uning bilim ummoni o'z tozaligi va zilolligini yillar osha teran aql bilan namoyon qilaveradi.

Suhbatdosh: Jamila ERDONOVA.

O'ZBEKISTONIM

Senda ko'z ochganman ona diyorim,
Chamanlar qo'ynida baxtim-bahorim.
Nurlar belanchagin tutgan nahorim,
Husnda tengi yo'q O'zbekistonim.

Bog'laring go'zaldir, suvlaring zilol,
Charog'on kechalar boshingda hilol.
Tinchlik quchog'ida bilmagin zavol,
Husnda tengi yo'q O'zbekistonim.

Buyuk allomalar beshigin quchgan,
Ezguliklar mudom qalbiga ko'chgan.
Xalqing adolat, deb qonlar ham kechgan,
Husnda tengi yo'q O'zbekistonim.



Zebo YUSUFBOYEVA,
Beruniy Pedagogika kollejining
105-guruh talabasi.

MUALLIM

Qaro tunning sirlarin bilib,
Erta tongga aytguvchi o'zing.
Shu tongdagi mayin shamolni,
Qo'llaridan tutguvchi o'zing.

Barg chiqargan kichik niholdan,
Azim daraxt kutguvchi o'zing.
Shu daraxtning mevasin ko'rib,
Murodiga yetguvchi o'zing.

Ha, o'sha sen, nurafshon kunda,
Ezgulikni dilga bog'lagan.
Yosh niholni parvarishlash-chun,
Subhidamdan ishga chog'lagan.

Ko'zlaringda nurli tabassum,
Yuragingda mehr limmo-lim.
Yuzlaringda porlaydi quyosh,
Mehri jo'shqin aziz muallim.

Dilfuza MAHKAMOVA,
Jizzax Davlat Pedagogika instituti
qoshidagi Iqtidorli bolalar litseyining
11-sinf o'quvchisi.

Tengdoshlaring ijodi

TA'ZIM

(Ustozim O'rozova Dilorom opaga)

Ilk bora olganda qo'limga qalam,
Berdingiz qalbimga ilhom va shuur.
Siz borki nurafshon bo'lar bu olam,
Ustoz, Sizga ta'zim qilay bir umr.

Siz aziz insonsiz, buyuk bir siymo,
Nazmimni ko'targan ikki kaftida.
Sizga ta'zim qilar ko'kda oymomo,
Men she'rlar bitaman mehrim taftida.

Sizga ta'zim qilay, sizni madh aylay,
Bugun baland qilib ovozlaringni.
Barcha hislatingiz qalbimga joylay,
Ko'taray ko'klarga ustozlaringni.



Bashorat MIRZAYEVA,
Shahrisabz tumanidagi M.Behbudiy nomli
13- maktabning 6-sinf o'quvchisi.

ONA AZIZ

Ona aziz mo'tabar inson,
Farzandiga ato qilur jon.
Baxtimizga bo'ling sog'-omon.
Mehribonim, jonim onajon.

Boshimizda parvonadirsiz,
Og'risak gar siz yonadursiz.
Quvonsak gar quvonadirsiz,
Dilda borim, jonim onajon.

Istagim shul Yaratganimdan,
Hech bir ona demasin «bolam».
Bo'lmasin hech onasizlik ham,
Suyanchig'im, jonim onajon.

Muxlisa ARSLONOVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumani.



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

Shuhrat (Xonanda)							Eshik	Bog'lov- chi	Mato turi
Odam, kishi	Shahar emas	Qalb	Qirg'iz eposi	Hammom, dush					Dona
			Aziz ne'mat				Ulov	Inkor	
Bilmas- voyning do'sti		Shakar	Cho'ntak	Yakka, yolg'iz			Alining ukasi		
Rang turi		Avto- mat turi					Kam	Mohir usta	...-93 yoqilg'i
		Vo... hodisa	Sariyog' turi	Ol, il	Mo'g'ul cho'poni		Nomus	Imorat, uy	Yo'q (aksi)
Udum, an'ana	Ekin turi				Pay- g'ambar		Sodiqov xonanda		
			Bax- shida					Ishora, belgi	
	Yo'g (ingliz.)						Shahar (Yaponiya)	Ziyo	
		Uya			Dada, ada			Yoy	

Tuzuvchi: Anvar JO'RAYEV.

Ushbu filvordda kasbga doir so'zlar yashiringan. Ularni toping-chi!

S	H	I	F	O	R	X	A	I	S	H	B	
S	H	R	O	K	O	T	B	L	T	A	A	
A	F	X	D	I	K	A	A	N	R	R		
O	Y	I	R	R	R	R	R	R	U	J		
R	C	H	I	U	R	I	C	H	I	B	H	U
O	V	R	E	G	B	I	V	C	H	I	M	
Q	U	N	K	A	R	Y	U	T	O	S		
I	T	A	B	H	U	C	H	U	V	C	H	I

Tuzuvchi: Zuhridin ALIXONOV,
poytaxtimizdagi 206-maktabning 8- «G» sinf o'quvchisi.

BAQLAJONLI SALAT

Kerakli masalliq: 5-6 dona baqlajon, 4-5 ta tuxum, 4-5 ta pomidor, ikki bo'lak sarimsoq piyoz, ko'kat va tuz.

Tayyorlanishi: Yuvilgan baqlajonlar uzunasiga parrak-parrak to'g'ralib, tuzli tuxumga bulg'anib olinadi. Qizib turgan yog'li tovada qovurilib, mayda to'g'ralgan pomidor, ko'kat va sarimsoqlar qo'shib o'raladi. Likopchaga bir qatorda teriladi.

OLMALI SOMSA

Kerakli masalliq: 300 gr. smetana, 2 dona tuxum, 5-6 stakan un, 1 choy qoshiq iste'mol sodasi, 250 gr. margarin, 1 kg. mayda shirin olma, 1 stakan shakar, 1 chimdim vanilin.

OCHIL DASTURXON



Tayyorlanishi: Margarin 2 stakan un bilan qirg'ichdan o'tkaziladi. Ustiga tuxum sarig'i, smetana, iste'mol sodasi, vanilin solib, qolgan unni solib yumshoq xamir qoriladi. Xamirni yong'oqdek zuvalachalarga bo'lib, muzlatkichga 1-2 soatga tindirish uchun qo'yiladi. Olmalarni yuvib, ikkiga bo'lib, o'rtasi urug'lardan tozalanadi. Zuvalachalarni yoyib, har biri o'rtasiga shakar solingan olmalarni qo'yib, dumaloq somsa shaklida tugiladi. Olmali somsalarni avval tuxum oqiga, keyin shakarga belab olib, gaz patnisiga teriladi. Qizdirilgan duxovkada o'rta olovda 35-45 daqiqa oltinrang tusga kirguncha pishiriladi. Shu masalliqdan 35-40 ta somsa chiqadi.

Yoqimli ishtaha!

Nargiza ABDULLAYEVA.

TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV

(O'zbekiston Xalq Ta'limi vaziri),

Dilbar ALIMJONOVA

(«Sog'lom avlod uchun»

hukumatga qarashli bo'lmagan

xalqaro xayriya jamg'armasi

ijrochi direktori),

Qahramon QURANBOYEV

(«Kamolot» Yo'li markaziy

kengashi raisi vazifasini

bajaruvchi),

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMIU bosh

muharrir o'rinbosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV

(Andijon viloyati, Xalq Ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Dilshoda DADAJONOVA

(Namangan viloyati Xalq

Ta'limi boshqarmasi boshlig'i),

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinbosari),

Sobirjon SHARIPOV

(Xorazm viloyati Xalq Ta'limi

boshqarmasi boshlig'i),

Nurxon NAFASOV,

Ergashvoy SARIQOV

(tadbirkor olim).

XANDALAR

Bir kuni jiyanim Vositbek yarim tunda dadam va oyimni uyg'otib, tushini aytib beribdi va oyimlarga qarab:

–Mening tushimni siz ham ko'rdingizmi?– deb so'rabdi.

* * *

Bir bolakay bog'chadan oyisi bilan kelayotib, hamma mashinalarning nomini aytib borardi:

–Mana, Damas, Neksiya, Kamaz...
Oyisi xashak ortilgan yuk mashinasini ko'rsatib:

–Bu qanaqa mashina?– deb so'radi.

–Xashak tashiydigan mashina,– javob berdi bolakay...

* * *

Oyidinning buvisi nabirasidan so'radi:

–Ko'zoynagim qani, ko'rmadingmi?

–Burningizda-ku buvijon...

Durdonabegim QODIROVA,

Toshkentdagi 129-maktabning

9-sinf o'quvchisi.

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin

SHAYADGAROV

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA

Musahhih:

Jamila

ERDONOVA

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-27-25

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-38-10